# VII. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ro‘yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 6690 tani tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabrda yalpi hududiy mahsulotning 68,7 foizi (2021- yil yanvar-sentabrda 69,0 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan:

-sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 3 924,3 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 26,3 foizi) yoki 2021- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 127,8 foizni tashkil qildi;

-23072,8 mlrd. so‘mlik qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) tashkil qilib, o‘sish sur’ati 103,7 foizni (qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari yalpi mahsulotining 98,7 foizi) tashkil qildi.

-3 613,3 mlrd. so‘mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 31,0 foizi) o‘zlashtirildi va 2021- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 99,7 % tashkil qildi;

-4 458,5 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 81,1 foizi) bajarildi va 2021- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 109,9 foizni tashkil qildi;

-avtomobil transporti yuk aylanmasining 110,0 foizga (umumiy yuk aylanmasiga nisbatan 85,8 ulushi), yo‘lovchi aylanmasining esa 108,5 foizga (umumiy yo‘lovchi aylanmasiga nisbatan 96,3 ulushi) teng bo‘ldi;

-chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 85,0 foizi yoki 11735,3 mlrd. so‘m (5,8 foizga o‘sish kuzatildi) va xizmatlar umumiy hajmining, mos ravishda 66,8 foiz ulushi yoki 2 240,4 mlrd. so‘mni tashkil qildi;

- eksport mahsulotlar (tovar va xizmatlar) 79,6 mln. AQSH dollarini yani shundan umumiy eksport hajmiga nisbatan 35,5 foizini tashkil etdi.

**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi**

*2022- yil yanvar-sentabr oylarida (jamiga nisbatan foizda)*



## 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi xususiy tadbirkorlikning (fuqarolar mulki) ulushi quyidagicha

| | *Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd. so'm* | *Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmida xususiy sektor ulushi, % hisobida* |
|---|---|---|
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 23 072,8 | 98,7 |
| Sanoat | 3 924,3 | 26,3 |
| Qurilish | 4 458,5 | 81,1 |
| Chakana savdo | 11 735,3 | 85,0 |
| Xizmatlar | 7 734,4 | 118,7 |
| Eksport, *mln. AQSH doll.* | 79,6 | 35,5 |
| Import, *mln. AQSH doll.* | 93,3 | 49,2 |

**Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi quyidagicha ifodalanadi:**




*(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)*

YaHM | Sanoat | Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar | Qurilish | Xizmatlar | Savdo

**2021- yil yanvar-sentabr** **2022- yil yanvar- sentabr**

**Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari**

| | *O‘lchov birligi* | *2021- yil* | *2022- yil* | *(+-)* |
|---|---|---|---|---|
| **Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni** | ***birlik*** | **31 903** | **35 543** | **3 640** |
| **Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar** | ***birlik*** | **8 163** | **6 690** | **-1 473** |
| YAHM | % | 69,0 | 68,7 | -0,3 |
| Sanoat | % | 24,7 | 26,3 | 1,6 |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | % | 99,2 | 98,7 | -0,5 |
| Investitsiya | % | 29,8 | 31,0 | 1,2 |
| Qurilish | % | 74,0 | 81,1 | 7,1 |
| Savdo | % | 91,1 | 85,0 | -6,1 |
| Xizmatlar | % | 70,0 | 67,4 | -2,6 |
| Yuk tashish | % | 86,2 | 86,2 | - |
| Yuk aylanmasi | % | 86,8 | 85,8 | -1,0 |
| Yo‘lovchi tashish | % | 95,3 | 90,9 | -4,4 |
| Yo‘lovchi aylanmasi | % | 97,0 | 96,3 | -0,7 |
| Eksport | % | 47,1 | 35,5 | -11,6 |
| Import | % | 47,6 | 49,2 | 1,6 |

## 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi




## Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi, foizda

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 68,7 foizni tashkil qildi (2021 yilning yanvar-sentabrida 69,0 foiz). YAHM tarkibida kichik biznes ulushining tushishi yirik korxonalar ulushi ko‘payishi bilan tushuntiriladi.

2022- yil yanvar-sentabr



**Kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi**
**(*umumiy hajmiga nisbatan mlrd. so'mda*)**

Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (808,4 mlrd. so'm), Qarshi tumani (335,0 mlrd. so'm), Kasbi tumani (306,3 mlrd. so'm), Qamashi tumani (302,1 mlrd. so'm), Koson tumani (298,4 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Ko'kdala tumani (86,3 mlrd. so'm) va Dehqonobod tumani (73,9 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.

**2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Ko'kdala tumani (100,0 foiz), Shahrisabz shahar (76,2 foiz) va Chiroqchi tumani (74,0 foiz) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga Dehqonobod (7,2 foiz), Nishon, G'uzor (7,5 foiz), Muborak (24,1 foiz) va Qarshi (26,0 foiz) tumanlarida kichik tadbirkorlikning ulushi pastligi kuzatildi.

**1 yanvar-sentabr holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo‘yicha ulushi, foiz**




Hududlar bo‘yicha ko‘proq qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi hajmi Koson (2274,7 mlrd. so‘m), Qamashi (2065,5 mlrd. so‘m), Kasbi (1912,5 mlrd. so‘m), Kitob (1861,1 mlrd. so‘m), Qarshi (1835,6 mlrd. so‘m), Yakkabog‘ (1824,9 mlrd. so‘m), Mirishkor (1586,2 mlrd. so‘m), Chiroqchi (1552,3 foiz), Shahrisabz (1547,5 mlrd. so‘m), G‘uzor (1546,6 mlrd. so‘m), Nishon (1480,7 mlrd. so‘m), Muborak (1237,3 mlrd. so‘m), Ko‘kdala (1121,9 mlrd. so‘m) va Dehqonobod (897,8 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Shahrisabz (149,3 mlrd. so‘m) va Qarshi (178,8 mlrd. so‘m) shaharlarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi hajmi past bo‘lib qolmoqda.

**2022- yil yanvar-sentabrda hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi hajmi va o‘sish sur’ati**



Hududlar bo‘yicha ko‘proq chakana tovar aylanmasi hajmi Qarshi shahri (2423,8 mlrd. so‘m), Koson  (1066,9 mlrd. so‘m), Qamashi (1035,3 mlrd. so‘m), Chiroqchi (969,9 mlrd. so‘m) tumanlari va Shahrisabz shahri ( 747,0 mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keladi. Qarshi (421,6 mlrd. so‘m), Ko‘kdala (411,3 mlrd. so‘m), Shahrisabz (388,5 mlrd. so‘m ) va Muborak (365,7 mlrd. so‘m) tumanlarida chakana tovar aylanmasi hajmi nisbatan pastroqni tashkil qildi.

**2022- yil yanvar-sentabrda hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o‘sish sur’ati**




**2022- yil yanvar-sentabrda hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar hajmi va o‘sish sur’ati**



**2022- yil yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlardagi hududlar bo‘yicha ulushi, foizda**

| | *Sanoat* | *Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi* | *Investitsiya* | *Qurilish* | *Chakana savdo* | *Xizmatlar* |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Qashqadaryo viloyati** | **26,3** | **98,7** | **31,0** | **81,1** | **85,0** | **67,4** |
| Qarshi sh. | 32,0 | 98,5 | 26,9 | 67,5 | 57,0 | 39,8 |
| Shahrisabz sh. | 76,2 | 96,3 | 71,1 | 76,5 | 96,4 | 61,5 |
| *tumanlar:* | | | | | | |
| G‘uzor | 7,5 | 98,8 | 7,6 | 79,7 | 98,5 | 71,8 |
| Dehqonobod | 7,2 | 98,5 | 64,2 | 100,0 | 99,1 | 79,7 |
| Qamashi | 65,4 | 99,8 | 66,4 | 100,0 | 99,0 | 86,9 |
| Qarshi | 26,0 | 99,6 | 72,3 | 94,8 | 96,3 | 86,3 |
| Koson | 45,4 | 99,9 | 83,1 | 92,5 | 96,8 | 83,3 |
| Kitob | 65,2 | 99,4 | 26,2 | 92,2 | 96,5 | 87,2 |
| Mirishkor | 38,8 | 98,1 | 39,9 | 100,0 | 99,1 | 91,8 |
| Muborak | 24,1 | 97,4 | 7,7 | 66,6 | 93,4 | 72,2 |
| Nishon | 7,5 | 95,0 | 36,8 | 94,7 | 98,8 | 79,0 |
| Kasbi | 28,7 | 96,3 | 41,6 | 98,9 | 98,8 | 85,7 |
| Ko‘kdala | 100,0 | 99,9 | - | 100,0 | 100,0 | 76,6 |
| Chiroqchi | 74,0 | 99,9 | 82,1 | 58,2 | 96,0 | 57,2 |
| Shahrisabz | 48,1 | 99,5 | 58,8 | 99,9 | 94,1 | 43,9 |
| Yakkabog‘ | 30,7 | 99,4 | 80,3 | 94,0 | 98,6 | 79,5 |

Hududlar bo‘yicha sanoat sohasining kichik biznesdagi eng yuqori ulushi Ko‘kdala (100,0 foiz), Shahrisabz shahar (76,2 foiz), Chiroqchi (74,0 foiz) va Qamashi (65,4 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Investitsiyada eng yuqori ulushlarni Koson (83,1 foiz), Chiroqchi (82,1 foiz), Yakkabog‘ (80,3 foiz) va Qarshi (72,3 %) tumanlarida kuzatildi.

Qurilish sohasida Dehqonobod, Qamashi, Mirishkor, Ko‘kdala tumanlarida mos ravishda (100,0 foiz), Shahrisabz (99,9 foiz) va Kasbi (98,9 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Chakana savdoda Ko‘kdala (100,0 foiz), Dehqonobod (99,1 foiz), Qamashi (99,0 foiz), Nishon va Kasbi mos ravishda (98,8 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Xizmatlar sohasida Mirishkor (91,8 foiz), Kitob (87,2 foiz) va Qamashi (86,9 foiz) tumanlarini tashkil etadi.

Joriy davrda mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi. Qurilish sohasida respondentlarning 59,7 foiz qulay, 35,3 foiz qoniqarli deb hisoblashini, savdo sohasida – 56,2 foiz qulay va 37,6 foiz qoniqarli, mos ravishda xizmatlar sohasida – 56,9 foiz va 36,2 foiz, sanoatda – 50,6 foiz va 34,7 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 46,6 foiz va 44,0 foiz qoniqarli tashkil qilgani ko‘rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar qurilishda – 5,0 foiz, sanoatda– 14,7 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 9,4 foiz, xizmatlarda – 6,9 foiz va savdoda – 6,2 foizni tashkil qildi.

**Kichik tadbirkorlikda iqtisodiy vaziyatni baholash**
**2022- yil III -chorak uchun, foizda**




**Iqtisodiy vaziyat yaqin uch oyda** savdo tarmog‘ida qulay 57,9 foiz, qoniqarli 37,3 foiz, xizmatlarda qulay 57,8 foiz, qoniqarli 36,7 foiz, sanoat korxonalari qulay 57,2 foiz, qoniqarli 32,1 foizi, qurilish tarmog‘ida qulay 58,2 foiz, 36,6 foiz qoniqarli va Qishloq, o‘rmon va baliqchilik ho‘jaligida qulay 51,3 foiz, 40,2 foiz qoniqarli bo‘lishi kutilmoqda.

**Kichik tadbirkorlik (biznes)da iqtisodiy vaziyatning o‘zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, foizda**




Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko‘rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.